

I.f.n. Akbar SHERNAYEV

Oriental universiteti

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISHNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksionerlik jamiyatlar soliqlarini rejalashtirish bo'yicha strategik qarash va dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish nuqtai-nazaridan ushbu masalaning metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilishning zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatdan ko'rib chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatlar, xujalik yurituvchi, soliq rejim, korxonalar, sanoati korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlar moliyalashtirish, asosiy kapital, taraqqiyot strategiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiyalar, rentabellik daraja, soliqlarni rejalashtirish.

THE IMPORTANCE OF TAX PLANNING IN JOINT STOCK COMPANIES

Abstract. In this article, the shareholder shows the need to research the methodological and practical aspects of this issue in terms of strategic vision and development of programmatic measures for the planning of taxes of societies. In Uzbekistan, the theoretical, methodological and practical consideration of tax planning issues in joint-stock companies is one of the issues of relevant importance today.

Keywords: Joint-Stock Companies, JSC, tax regime, enterprises, industry enterprises, financing of joint-stock companies, basic capital, development strategy, foreign economic activity, investments, level of profitability, tax planning.

Kirish

Hozirda jahonda xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bunda turli xujalik yuritish shakllari, jumladan aksionerlik jamiyatlari kurinishidagi korporativ tuzilmalar faoliyatini kengaytirish maqsadida xorijiy kapital jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan soliqlar orqali raqobatlashish amaliyoti kuzatilmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi soliq raqobatida har bir davlat tomonidan soliq stavkalarini unifikatsiyalash orqali soliq yuki darajasini keskin kamaytirish, soliq hisobotlarini ixchamlashtirish, soliq nazoratini soddalashtirish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratilishi talab etilmoqda. Shuningdek, alohida soliq rejimlari o'rnatilgan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rivojlantirish masalasi ham alohida

yoʻnalish sifatida koʻzga tashlanmoqda. Aynan keltirilayotgan jihatlar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning zarurligi, mohiyati va funksiyalarini izohlash uchun izlanishning maʼlum mantiqiy ketma-ketligiga rioya etish talab etiladi: dastlab iqtisodiy munosabatlar tizimida korxonalarining tutgan urni, iqtisodiy mohiyati va tavsifi, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy-iqtisodiy mazmuni yoritiladi, sungra soliklarni rejalashtirishning zarurligi, mohiyati, tasnifi, elementlari, tamoyillari va funksiyalari, boskichlari iqtisodchi-olimlar va xuquqiy-meyoriy asoslarga tayangan holda nazariy talqin etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda aksiyalarni emissiya qilishdan koʻzlangan asosiy maqsadlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

-aksiyadorlik jamiyatini tashkillashtirish uchun yangi korxonani boshlangʻich kapital bilan taʼminlash hamda xoʻjalik faoliyatini yuritish;

-xoʻjalik faoliyatini yuritish davomida qoʻshimcha pul resurslarini jalb etish (kapitalni koʻpaytirish);

-boshqa kompaniyani qoʻshib olish;

-korxonaga samarali menejmentni olib kirishi, uning mavqeini qayta tiklashi yoki mustahkamlashi mumkin boʻlgan, kapital tuzilmasida va jamiyatni boshqarishda sezilarli oʻzgarishlarni amalga oshiradigan strategik investorni jalb qilish;

-aksiyadorlik jamiyati ustidan nazoratni saqlab qolish va mustahkamlash. Masalan, hozirgi kunda AQShda aksiyalarni emissiya qilishning asosiy sabablari quyidagilar:

-boshqa kompaniyalarni qoʻshib olish maqsadida moliyalashtirish;

-korporatsiyaning jami kapitalida qarz kapitali ulushini kamaytirish;

-asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish.

Umuman, aksiyadorlik moliyalashtirishni amalga oshirishning pirovardida loyiha tashabbuskori investitsiyalarni jalb etish va foydani maksimallashtirish imkoniyatiga ega boʻladi. Investorlar (aksiyadorlar) esa dividend olish huquqi bilan birga jozibador korxonaga aksiyasining egasi hisoblanadilar. Shuning uchun ham oddiy aksiyalarni emissiya qilish investitsiya jalb etish usuli sifatida emitent kompaniya uchun muhim qulayliklarga ega. Chunki, iqtisodiy qulay shartlarda (xiyla past kapital qiymati) va muddatsiz (aksiyadorlik jamiyati faoliyatining butun davri davomida) qoʻshimcha moliyalashtirish imkoniyatini beradi. Ushbu holat esa, oʻz navbatida, korporatsiyalarning yirik dastur va loyihalarni moliyalashtirishiga real shart-sharoit yaratadi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda.

Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda «aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish foydalanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, soliq siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida soliq menejmenti samaradorligini oshirish imkonini beradi» [2].

O'zbekistonda aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari maxsus, mustaqil tadqiqot o

b Mamlakatimizda aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va korporativ soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish va boshqarishning makroiqtisodiy va korporativ ko'lamli vazifalari, korxonada soliqlarni strategik va taktik rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish konsepsiyalari tashkil etadi.

Soliqlarni rejalashtirish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili ko'rsatishicha, bu sohaga oid adabiyotlar soni ko'p bo'lishiga qaramay, mualliflarning "soliqlarni rejalashtirish" tushunchasiga bergan ta'riflari har doim fiam soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni mukammallashtirish va soliqlarni minimallashtirish tushunchalarini aniq farqlashga imkon bermaydi. Masalan, S.Malakeeva mazkur tushunchalarni birday ko'radi va ularning mohiyatini soliq to'lovchilarning soliq to'lovlarini kamaytirish yuzasidan harakatlari sifatida talqin etadi [4].

a S.Elmirzaev "Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliq va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni kamaytirish bo'yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir" [5] deb ta'kidlaydi.

t X.B.Zaripov fikricha, "soliqlarni rejalashtirish jarayonida asosiy tijorat va investitsion natijalarga erishish to'lanadigan soliqlar summasi darajasining asoslangan yoki optimal miqdori orqali ta'minlanmog'i lozim [8].

A.Zaynutdinov "soliqlarni rejalashtirishni mikrodarajada umumiy rejalashtirish tizimining bir qismi sifatida, boshqaruv faoliyatining ko'rinishi sifatida, xo'jalik sub'ekti haraktlarini soliqqa tortish orqali tartibga solish usuli" sifatida talqin etadi. Soliqlarni rejalashtirish korxonani boshqarishning umumiy maqsadiga erishishni ta'minlaydi: tang vaziyatlarda - yashab qolish; normal vaziyatlarda – samaradorlikni oshirish, o'z moliyaviy resurslari hajmini oshirish va raqobatchilar oldida ustunliklarga ega bo'lish" [11].

X

Soliqlarni rejalashtirish moliyaviy resurslarni oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida ta'minlashga yo'naltirilgan rejali faoliyatlar yig'indisidir.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida" gi qonuniga asosan, korxonalar bu - huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi. Korxonalarining faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatdan ham shundaydir. Biroq korxonalar, ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarining emas, davlatning ham ko'z oldida bo'lishi zarur. Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalariga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo'jalik faoliyati doirasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi.

Zamonaviy korxonalar - mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, korxonalar *mulkchilik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik, o'rta va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalariga bo'linadi. Biroq, ushbu belgilardan qat'i nazar, deyarli har bir korxonalar Nizom asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonalar rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi. Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi Nizom jamg'armasiga tayanadi. Nizom jamg'armasi qonunga

asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar - davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

Korxonani turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

-ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonona – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

-ijtimoiy munosabatlarda korxonona – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;

-tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonona huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

-moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonona – bu, tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Korxonona o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxonona o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxonona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxonona xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxonona qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxonona mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxonona o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Tadqiq maksadi va vazifalaridan kelib chikib, izlanish ob'ekti sifatida aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olinganligi bois ushbu xujalik yuritish va mulk shaklining moliyaviy-iqtisodiy tabiatini, xususiyatlari va muammolarini xam kurib chikish talab etiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi shakllanishida, uy xo'jaliklarining doimiy daromad manbasiga ega bo'lishlarida, tashqi savdo

munosabatlarida, moliya-kredit muassasalarining barqaror ishlashida o'ziga xos vositachi vazifasini o'taydi.

Ma'lumki, fond bozorining eng asosiy ishtirokchisi aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari (shuningdek, korporatsiyalar [1] deb ham nomlanadi), ulushli qimmatli qog'ozlar (oddiy aksiyalar)ni emissiya qilishi mumkinligi kabi qarzli qimmatli qog'ozlar (asosan korporativ obligatsiyalar)ni ham emissiya qiladilar. Keltirilgan qimmatli qog'ozlarning har bir turi moliyalashtirish manbalari tizimida o'z o'rniga, xususiyatli jihatlariga ega. Shunga muvofiq ular zamonaviy iqtisodiyotda o'zining maxsus funksiyalarini bajaradi. Alohida mamlakatlarda aksiya bozori va korporativ obligatsiyalar bozori hajmining rivojlanish farqi ular moliya tizimi faoliyatining tarixiy xususiyatlari bilan bog'liq.

Shuningdek, korxonalar bilan oldindan belgilangan o'ziga xos munosabat shakllari kapitalga egalikning murakkab tuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Aksiyadorlik moliyalashtirish o'z-o'zini moliyalashtirish usullaridan biri bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish hamda rivojlantirish uchun aksiyalarni emissiya qilish (chiqarish va joylashtirish) orqali resurs (investitsiya) jalb etishni anglatadi.

Aksiyadorlashtirish (aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish) metodologiyasi borasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olim L.N.Straxovning fikriga ko'ra aksiyadorlik tarzidagi tadbirkorlik uzoq evolyusion rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Jarayon natijasida doimo takomillashib keldi. Shuningdek, uning asosiy g'oyasi bo'lgan aksiyadorlik jamiyati ta'sischi riskining aksiyalarga yo'naltirgan qo'yilmalarining hajmi bilan chegaralanganligi va shu asosida kapitalning shakllantirilishi butun rivojlanish davrida o'zining mazmun-mohiyatini saqlab qoldi. Aksiyadorlik jamiyatlari (korporatsiyalar) faoliyatining tashkiliy-huquqiy xususiyatlari ularga ob'ektiv ravishda qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish orqali investitsiyalarni jalb etish kabi alohida imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunda aksiyalar nafaqat bunday tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarining tuzilmasini shakllantiruvchi muhim element sifatida, balki tez moslashuvchan, investitsion resurslarning akkumulyatsiyasini ta'minlaydigan, korporatsiyaning xo'jalik faoliyatini yuritishda zarur moliyaviy instrument sifatida ham yuzaga chiqadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar N.V. Burkova, M. Yu. Makoveskiylarning fikriga ko'ra, hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlari haqli ravishda bozor iqtisodiyotining eng muhim institutlari qatoriga kiradi. Tashkiliy shaklning o'zi ularga qimmatli qog'ozlarni, xususan aksiyalarni emissiya qilish hisobiga xo'jalik (shuningdek, investitsion) faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatini beradi.

Aksiyadorlik kapitali shakllanishi borasida tadqiqot olib borgan iqtisodchi A. A. Poroxovskiyning fikriga ko'ra aynan aksiyadorlik mulki va aksiyadorlik kapitali

bazasida iqtisodiy taraqqiyot uchun nafaqat mustahkam asos shakllanadi, balki kapital va biznesning konsentratsiyasi uchun teng sharoit yaratiladi.

Iqtisodchi olimlar V. V. Bocharov va V. Ye. Leontevning fikriga ko‘ra: “Biznesning korporatsiya tarzida yuritilishining afzalliklaridan biri bo‘lib mulk huquqini o‘tkazishning oddiyligi hamda yangi aksiyalar paketini emissiya qilish orqali nisbatan qisqa davr mobaynida qo‘shimcha pul resurslarini jalb qilish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu ikkita ustunlik holati ham moliya bozorida amalga oshirilib, sanoati rivojlangan davlatlarda korporatsiyalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi”.

Fikrimizcha, investitsion resurslarni jalb etish shakli sifatida aksiyalar emissiyasining asosiy afzalliklari bo‘lib kapitalni bir necha marotaba ko‘paytirish imkoniyati, resurslarni muddatsiz jalb etish va oddiy aksiyalar emissiyasi amalga oshirilganda majburiy birlashtirilgan to‘lovlarning yo‘qligi kabilari hisoblanadi. Dividendlar ko‘rinishida aksiyadorlarga to‘lovlarni amalga oshirish ko‘pincha bevosita korporatsiyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari bilan bog‘liq. Dividendlarni to‘lamaslik emitentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy e‘tirozlarni keltirib chiqarmaydi.

Shuning bilan birga, fikrimizcha, investitsiyalarni jalb etish turi sifatida aksiyalarni emissiya qilishning asosiy kamchiligi korporatsiyani boshqarishga yangi aksiyadorlarni jalb qilish zaruratidir. Natijada, aksiyadorlik jamiyatini nazorat qilish (boshqarish)ni yo‘qotish riski paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, agar korporatsiya bozorda unchalik taniqli bo‘lmasa yoki uning aksiyalari past likvidlikka ega bo‘lsa, u holda manfaatdor investorlarni topish uchun qo‘shimcha harakat va xarajat qilishga to‘g‘ri keladi.

Soliqlarni rejalashtirishning ahamiyati soliqlarni maksimal darajada qisqartirish uchun qonunchilik yo‘l qo‘ygan usul va vositalar, shu jumladan qonunchilikdagi bo‘shliqlardan soliq to‘lovchilar foydalanishi natijasida uning prezumpsiya huquqi tan olinishida aks etadi. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash bo‘yicha chora-tadbirlarni oldindan belgilashda ham namoyon bo‘ladi.

Korxonalarda soliqlarni boshqarish tizimida soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish orqali soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni qonun doirasida kamaytirish imkoniyatlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

- soliqqa tortish ob‘ekti bo‘yicha (masalan, davlat lotereya va obligatsiyalaridan daromadlar, omonatlar bo‘yicha foizlar);
- soliqqa tortish sub‘ekti bo‘yicha (masalan, mikrofirma va kichik korxonalar uchun investitsion soliq kreditining amal qilishi);
- soliqlarni hisoblash va to‘lash usuli bo‘yicha (masalan, kadastrli usulda soliq to‘lash inflyatsiya sharoitida korxonalar uchun foydali hisoblanadi);

- soliqqa tortish tizimlari ko‘rinishlari bo‘yicha (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar va bank depozitlaridan daromadlarni soliqqa tortishda turli xil stavkalarining qo‘llanilishi);

- faoliyatni soliq yuki past davlatlarda tashkil etish orqali soliqlarni butunlay kamaytirish (offshor zonalar orqali soliqlarni kamaytirish).

Umuman, **“soliqlarni rejalashtirish** – bu soliq to‘lovchining korxonalar moliyaviy resurslarini ko‘paytirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, amaldagi qonunchilikka asosan byudjet bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishini ta‘minlash va boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan rejali harakatlari majmui” ekanligini ta‘kidlash mumkin.

Xulosa va takliflar

Umuman, O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning hozirgi zamon xususiyatlarini umumlashtirib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish soliqlarni optimallashtirish va soliq to‘lovlarini qonuniy tarzda minimallashtirishdek korporativ soliq menejmentining muhim ikki yo‘nalishi uzviy bog‘liqligi va bir-birini taqozo etuvchanligida namoyon bo‘ladi va samarali amal qiladi.

2. O‘z tarkibiga soliqlarni optimallashtirish va soliq to‘lovlarini minimallashtirish tadbirlari va samarali vositalarini oluvchi soliq logistikasi asosida aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning tashkiliy tarkibi, uning mazmuni va mezonlari ilmiy asoslab berilishi muhim. Bu jihatdan “soliq logistikasi” - belgilangan joyda belgilangan vaqtda eng kam soliq majburiyatlari bilan eng ko‘p foyda normasini olish imkonini beruvchi turli faoliyat turlarining majmuini anglatadi.

3. Aksionerlik jamiyatlarida soliqlarni optimallashtirish usullari, jumladan, korxonaning hisob, investitsiya, innovatsiya, baho va shartnoma siyosati mutanosibligi asosidagi harakatlarning Yo‘l xaritasi asosida soliqlarni rejalashtirishning optimal sxemasi ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

orporatsiya – lotincha corporatio – birlashma, hamjamiyat. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. . J. II. Ye – M / Tahrir hay‘ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O‘zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.408-b.

‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi solik siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi 29 iyun 2018 yildagi PF-5468-sonli Farmoni.

ia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application

- of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
- алакеева С. Роль налогового планирования на предприятиях малого бизнеса // *Предпринимательство*. – 2017. -№ 6. – С. 114.
5. Elmiraev S.E. O‘zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari. I.f.n. ilmiy dar. olish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. – T., 2012. – 9 b.
6. SHERNAEV A.A. TAX ANALYSIS IN MICROLEVEL TAX PLANNING // *ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING*. FEBRUARY, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p.
7. Jumaniyazov, I., & To‘laganova, F. (2023). Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi. *Science and Education*, 4(6), 836–847. Retrieved from <https://opendspace.uz/index.php/sciedu/article/view/6095>
- арипов Х.Б. Экономическое значение налогов и налоговая политика Узбекистана. Э
9. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». *Международный ежемесячный научный журнал* - №9-2 (67). Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 149-152.
10. Jumaniyazov, I. T., & Isломov, A. (2023). O ‘RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 121-127
- Йинутдинов А. Налоговое планирование в предприятии в условиях налоговой реформы в
12. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // *International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom* ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357
- жамалов Х.Н. Диагностика финансового здоровья предприятий малого бизнеса//*Journal* у
14. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). *Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education*, 3 (5), 1646-1654.
- ернаев А.А. Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах // «Интернаука»: научный журнал - № 12(141). Часть 2. Москва, изд. «Интернаука», 2020. - с. 43-45
- номjon Turaevich Jumaniyazov, & Bexruz Hazratov (2022). *Foreign experience in the development of special economic zones in Uzbekistan. Science and Education*, 3 (5), 1628-1636.
- srор, A., & Inomjon, J. (2023). O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 128-138.
18. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. *International Journal of Economics, Business and Management Studies*-ISSN, 2347-4378.
19. Jumaniyazov, I. T. (2022). O‘zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari. *Science and Education*, 3(5), 1637-1645.



ернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.